BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna
FarDU pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori, professor
Xatamova Durdonaxon
Farg'ona shahar 3-sonli maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, kasbiy mahoratni shakllantirishda matnlarning o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, kadrlar tayyorlash, internet tarmog'i, zamonaviy kasblar, kadrlar salohiyatini yaxshilash, axborot texnologiyalari.

Kasb-hunarga yo'naltirish o'sib borayotgan yosh avlodni qiziqishlari, kasbga bo'lgan layoqiyatini qo'llab quvvatlash va takomillashtirishda namoyon bo'ladigan tushuncha hisoblanadi. Yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish insonga kasbiy o'zligini anglashda eng muhim omil bo'ladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham o'sib borayotgan avlodni kasbiy salohiyatini oshirish, ularni iqtidoridan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlashga yordam berish keltirib o'tilgan. Kasbga yo'naltirish bir inson uchun foydali bo'libgina qolmay, butun jamiyat va oila uchun ham foydali hisoblanadi. Shu boisdan, ham o'quv jaarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish yosh avlodni ongli ravishda yo'naltirilgan bo'ladi.

Nafaqat talaba yoshlar hayotida, balki, maktab o'quvchilarni ham kasbga yo'naltirish tadbiq etilmoqda. Yangi O'zbekiston maktab darsliklarining aksariyati o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularning qiziqish va kasbiy mahoratlarini yuzaga hiqarishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'qquvchilari matnlar bilan ham tanishish jarayonida tturli kasb egalari haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu esa ularga kasb tanlashlariga yordam beradi. Darslikda keltirilgan aksariyat matnlar zamonaviy kasblar haqida bo'lib, ular texnologiya, axborot komminikatsiya, ishlab chiqarish sohalarriga qaratilgan.

Darsliklar nafaqat o'quvchilarga bilim beradi, balki ularni kasbga ham yo'naltiradi. "Asalari qanday boqiladi?" deb nomlangan matn orqali o'quvchilar asalarining foydalari va uni boqish usullari bilan tanishadilar. Asalari boqish orqali kichik biznesni yo'lga qo'yish mumkunligi va bu orqali daromat olish va foydalar haqida o'quvchilar tanishadilar. Bundan ko'zlangan maqsad yosh tadbirkorlarni qishloq xo'jaligiga qiziqtirish va asalari parvarish qilishning sir sinoatlarini o'rgatish hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, darsliklar o'quvchilarning qiziqishlarini ham inobatga oladi. Keltirilgan matnlar esa o'z fikrini erkin bayon etishga chaqiradi. Keltirilgan "Izzatning jo'jalari" matni esa o'quvchilar ga chorvachilik va parrandachilik haqida ma'lumot beradi. Berilgan matn orqali jo'jalarning qanday ko'payishini o'quvchilar bilib oladilar. Bu ham yosh tadbirkorlarning yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, darslikda keltirilgan matnlar o'quvchilarga tibbiy bilimlar ham beradi. "Sabzavotlar nima deydi?" deb nomlangan matn orqali o'quvchilar sabzavotlar va ularda bor vitaminlar, sabzavotlarning foydali hususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Qaysi sabzavotlar qanday kasalliklarga shifo bo'lishini o'rganib oladilar. Ushbu turdagi matnlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini yana ham oshiradilar. Matnda berilgan so'z birikmalari, iboralar va o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar orqali o'quvchilar o'z dunyoarashlarini yana ham oshiradilar.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Matnlar o'quvchilarning tibbiy bilimlarini ham oshirishga yordam beradi. "Xotiraning dorisi" deb nomlangan matn orqali o'quvchilar xotira mustahkam bo'lishi uchun qanday preparatlardan foydalanish kerakligini bilib oladilar va bu, albatta, ularning bilim samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Xotira mustahkam bo'lishi uchun inson yod moddasidan ko'proq iste'mol qilish kerakligini va qanday mahsulotlarda yod moddasi borligini ushbu matn orqali o'quvchilar bilib oladilar.

Ilm-fanni yuksaltirishga bag'ishlangan "Olim bo'lmoqchiman" deb nomlangan matn orqali o'quvchilar olim bo'lish uchun o'qilishi kerak bo'lgan fanlar va kitoblar haqida bilib oladilar. Matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bog'lovchi vositalar bilan ham tanishadilar, ajratib ko'rsatilgan bog'lovchilar qaysi turga mansubligini matn mazmunidan kelib chiqqan holda ajratib oladilar.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish yosh avlodni kelajak yo'lini topishga va buyuk davlat barpo etishga zamin yaratadi. Shunday ekan, o'qituvchilar dars davomida o'quvchilarni qiziqish va qobilyatlarini bilib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Matn bilan ishlash va nutq" - Dilorom Egamova
2. "Matn bilan ishlash metodikasi" - Shirinboy Rakhmonov
3. "Ona tili o'qitish metodikasi" (Boshlang'ich ta 'lim fakulteti talabalari uchun darslik): |K. Qosimova|, S.M atchonov, X. G'ulom ova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 119 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik/ I.Azimova [va boshq.].- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 124 b.
5. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism 58-bet [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 114 b
6. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 129 b.
7. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 126 b
8. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism, [Matn]: darslik 3-sinf uchun / K.Mavlonova [va boshq.].- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 134 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.